

"Erasmus+ NICOPA loyihasi"



With the support of the
Erasmus+ Programme
of the European Union



Loyihaning raqami (agar mavjud bo'lsa): «597985-EPP-1-2018-1-KZ-EPPKA2-CBHE-JP»

Ariza beruvchi tashkilot: Seyfullin Qozoq Agrotexnika universiteti

Maqsad: yangi texnologiyalar (geografik axborot tizimi (GAT), katta ma'lumotlar, masofadan zondlash) yordamida aniq (raqamli) qishloq xo'jaligida o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish

Loyihaning Vazifalari:

- Muammoni va ishni tahlil qilish orqali aniq (raqamli) qishloq xo'jaligida ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilish va joriy o'quv dasturlarini ko'rib chiqish.
- Aniq qishloq xo'jaligi bo'yicha joriy o'quv dasturlarini yangilash.
- Yevropa kredit transfer tizimi (EKTT) ni o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, joriy etish va akkreditatsiyadan o'tkazish.

Loyihadan kutilayotgan natijalar:

- Hozirgi aniq (raqamli) qishloq xo'jaligiga oid o'quv dasturlarini tahlil qilish yo'li bilan o'rganish.
- Yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan bakalavriatura va magistratura o'quv rejalari uchun o'qitish strategiyasi va qo'llanmasi to'g'risidagi kelishuv.
- Innovatsion o'qitish vositalarini o'z ichiga oladigan yangi boshlang'ich o'quv rejalari va transferli modullar to'plami.
- Bologna talablariga va yangi ishlanmalarga muvofiq aniq (raqamli) qishloq xo'jaligidagi joriy ikki davr o'quv reja va dasturlarini yangilash.
- YeKTTni o'z ichiga olgan ishlab chiqilgan, joriy etilgan va akkreditsiyalangan yangi amaliyotga yo'naltirilgan, talabaga yo'naltirilgan va transferli o'quv dasturlari.

Hamkor davlat oliy ta'lim muassasalarini mehnat bozoriga yaqinlashtirish. Innovatsion o'quv jihozlari bilan bir qatorda: yangi jihozlangan PAL laboratoriyasi, VCR xonasi, aniq (raqamli) qishloq xo'jaligi ma'lumotlaridan foydalanuvchi PASO xizmat ko'rsatish bo'limi. Oliy ta'lim uchun Yevropa modernizatsiyalash masalalarini e'tiborga olgan holda mazmunga, kelishilgan strukturaga, yangi o'qitish strategiyasiga va yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi umuman olganda ko'zda tutilgan ta'sirga aylanadi.

Loyiha davomida kutilayotgan tadbirlar rejasi:

- ta'lim ehtiyojlari bo'yicha mavjud o'quv dasturlarini tahlil qilish va yangilash.
- sohadagi yangi yutuqlar, mehnat bozori talablari va Boloniya jarayoni bo'yicha yangi sertifikatlangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Amalga oshirish davri: 15.11.2018 - 14.11.2021 yy.

Taqdim etilgan grant miqdori: 999 847 Yevro, shu jumladan TIQXMMIga 68 604 Yevro

NICOPA konsorsiumini 16 hamkor tashkilot tashkil etadi. Hamkorlarning tajriba, ko'nikmalari va ishbilarmonliklari loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

Loyihaning hamkorlari:


Hamkor	Tashkilot nomi	Akronim	Shahar / Mamlakat
P1	Saken Seyfullin nomidagi Qozog'iston agrotexnika universiteti	KazATU (Kordinator)	Ostana / Qozog'iston
P2	Berlin texnika universiteti	TUB	Berlin/Germaniya
P3	Plovdiv qishloq xo'jalik universiteti	AU	Plovdiv, Bolgariya
P4	Chexiya agrotexnika universiteti	ČZU	Praga, Chexiya
P5	Kosmik texnologilarni boshqarish va injenering konsalting byurosi (ECM space technologies GmbH)	ECM	Berlin/Germaniya
P6	Shokana Ualixanova nomidagi Kokchetov davlat universitet	KDU	Kokchetov / Qozog'iston
P7	M. Kozıbaev nimidagi Shimoliy Qozog'iston davlat universiteti	ShQDU	Petropavlovsk / Qozog'iston
P8	S. A. Niyazov nomidagi Turkmaniston qishloq xo'jaligi universiteti	TQXU	Ashxobod / Turkmaniston
P9	Turkmaniston davlat arxitektura-qurilish instituti	TDAQI	Ashxobod / Turkmaniston
P10	Turkmaniston qishloq xo'jaligi instituti	TQXI	Dashovuz / Turkmaniston
P11	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	O'zMU	Toshkent / O'zbekiston
P12	Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	TATU	Toshkent / O'zbekiston
P13	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	TIQXMMI	Toshkent / O'zbekiston
P14	Ilm va fan vazirligi		Ostana / Qozog'iston
P15	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi		Toshkent / O'zbekiston
P16	Turkmaniston ta'lim vazirligi		Ashxobod / Turkmaniston

Loyihaning TIQXMMIdagi koordinatori: Ilxom Abduraxmanov, "Erda foydalanish" kafedrası "Geoinformatika" ixtisosligi tayanch doktoranti

- telefon: +998712371909 (ish); +998977703311 (mobil)

- email: ilhom.isakovich@gmail.com

Loyihaning organigrammasi:



Qo'shimcha ma'lumotni [ushbu havoladan](#) olishingiz mumkin.